


## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-noyabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5060,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 107,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (91,1 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining ko'payishiga asosiy omili bo'lib, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 21,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 6,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 12,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 28,6 % ga o'sishi kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati mahsulotlarining hajmi mlrd. so'mda va fizik hajmi indeksi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini tashkil etdi.


## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan IX-X-XI oylar, % da



## Tumanlar miqyosida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'mda


Tumanlar nomi	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	FHI, %
G'allaorol tumani	18311,4	31370,0	288,6
Forish tumani	15929,1	33900,2	223,7
Sharof Rashidov tumani	7995,3	25016,5	132,1
Zomin tumani	39928,5	17834,2	47,2
Jizzax shahri	13710,5	7293,1	125,7
Baxmal tumani	1102,3	3566,2	177,8

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4611,8 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,1 % ini tashkil etdi.


### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



### Yuqori texnologiyali



### Oʻrta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali	quyi texnologiyali
<p><b>Ulushi % da</b></p> <p>24,2 2019- y.</p> <p>21,6 2020- y.</p>	<p><b>Ulushi % da</b></p> <p>57,9 2019- y.</p> <p>61,4 2020- y.</p>


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2019- yilning yanvar-noyabr oylarida - 3,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,4 % (4,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 21,6 % (24,2 %) va quyi texnologiyalisi - 61,4 % (57,9 %) ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 9,4 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,4 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,3 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,6 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,1 % (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,3 %) ni tashkil etdi.

### **Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 60,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 10,2 % ga o'sgan), 4427,8 ming m<sup>2</sup> sirti silliqlangan shisha (29,7 %), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


## O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	54470,0	60020,0	5550,0
Paxta tolasi, t.	28434,0	23154,0	- 5280
O'simlik yog'li (tozalangan), t.	8822,1	6678,3	-2143,8
Paxta linti, t.	2426,0	2027,0	- 399
Trikotaj polotnolar, t.	2142,0	1867,0	-275


## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 276,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 5,5 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan IX-X-XI oylar, % da




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,4 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-noyabr	2020- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	154600,2	218630,0	64029,8
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	9,6	7,0	-2,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	59036,8	58356,3	680,5


## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan IX-X-XI oylar, % da




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- noyabr	2020- yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	19221,8	32396,2	13174,4
Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	55,4	38,5	16,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	49451,7	17171,9	32279,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 28,6 % ga oshganlik kuzatildi, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 1,0 %

ga, hamda kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar 28,2 % ga pasayishi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2373,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 46,9 % ni tashkil etdi.

















Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,2 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 10,0 % ni, Zomin tumani 9,3 % ni hamda Do'stlik tumani 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumani (228,0 %), Paxtakor (110,4 %), Yangiobod (143,9 %) va Arnasoy (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati















(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2373,1	100,0	109,1		219,5	9,3	102,6
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	777,8	32,8	100,1		100,3	4,2	105,4
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	88,2	3,7	112,4		180,1	7,6	228,0
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	79,3	3,3	111,2		67,6	2,8	107,1
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	104,5	4,4	115,1		124,5	5,2	110,4
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	236,9	10,0	102,9		102,2	4,3	101,8
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	219,2	9,2	103,0		73,0	3,1	143,9
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,8 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 10,0 % ni, Do'stlik tumani 9,2 % ni, Zomin tumani 9,3 % ni hamda Zafarobod tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumani (228,0 %) hamda Yangiobod tumanida (143,9 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)















	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	808,8	100,0	110,3		70,0	8,6	65,4
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	184,0	22,8	259,2		70,7	8,7	86,3
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	27,9	3,5	74,0		33,3	4,1	56,9
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	45,0	5,6	134,2		18,6	2,3	56,3
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	44,1	5,4	133,9		64,9	8,0	85,0
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	34,7	4,3	93,8		33,3	4,1	130,2
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	159,9	19,8	135,4		22,4	2,8	108,3
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,8 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 19,8 % ni, Zarbdor tumani 8,7 % ni, Zomin tumani 8,6 % ni hamda Paxtakor tumani 8,0% ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 259,2% ni,

Baxmal tumani (134,2 %), G'allaorol tumani (133,9 %) hamda Forish tumanida (130,2 %) qayd etildi.















## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i> 1564,4	<i>Ulushi % da</i> 100,0	<i>O'sishi % da</i> 108,4		<i>Mlrd. so'm</i> 149,8	<i>Ulushi % da</i> 9,6	<i>O'sishi % da</i> 139,5
<b>Jizzax viloyati.</b>				<b>Zomin</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 593,8	<i>Ulushi % da</i> 38,0	<i>O'sishi % da</i> 84,1		<i>Mlrd. so'm</i> 29,6	<i>Ulushi % da</i> 1,9	<i>O'sishi % da</i> 223,5
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 60,3	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>O'sishi % da</i> 148,0		<i>Mlrd. so'm</i> 146,9	<i>Ulushi % da</i> 9,4	<i>O'sishi % da</i> 716,9
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 34,3	<i>Ulushi % da</i> 2,2	<i>O'sishi % da</i> 90,9		<i>Mlrd. so'm</i> 49,0	<i>Ulushi % da</i> 3,1	<i>O'sishi % da</i> 163,1
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 60,4	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>O'sishi % da</i> 104,3		<i>Mlrd. so'm</i> 59,4	<i>Ulushi % da</i> 3,8	<i>O'sishi % da</i> 163,8
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 202,2	<i>Ulushi % da</i> 12,9	<i>O'sishi % da</i> 104,6		<i>Mlrd. so'm</i> 68,8	<i>Ulushi % da</i> 4,4	<i>O'sishi % da</i> 92,1
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	<i>Mlrd. so'm</i> 59,3	<i>Ulushi % da</i> 3,8	<i>O'sishi % da</i> 62,6		<i>Mlrd. so'm</i> 50,6	<i>Ulushi % da</i> 3,2	<i>O'sishi % da</i> 168,5
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 998,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,8 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida

	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	5060,6	100,0	107,5		266,1	5,3	101,4
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	2092,5	41,3	102,3		179,4	3,5	104,4
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	127,5	2,5	103,7		322,6	6,4	114,1
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	79,4	1,6	106,4		129,4	2,6	104,6
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzachoʻl</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	148,4	2,9	107,2		394,0	7,8	119,9
<b>Gʻallaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	340,6	6,7	109,0		199,5	3,9	104,0
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>		<b>Mrd. soʻm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>Oʻsishi % da</b>
	708,0	14,0	112,9		73,1	1,4	104,3
<b>Doʻstlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Paxtakor (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 120,0 %), Zafarobod 114,1 %), Do'stlik (112,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,3 % i) hamda Do'stlik (14,0 %) Paxtakor ( 7,8 %) va Sharof Rashidov ( 6,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Baxmal (1,6 %) hamda Yangiobod (1,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (11710,6 ming so'm), Do'stlik (10752,2 ming so'm), Zafarobod (6444,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3633,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1704,1 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 4352,7 ming so'mni, Do'stlik tumanida ming so'mni, Yangiobod tumanida 2583,4 ming so'mni, Zomin tumanida 1332,2 ming so'mni, Zafarobod tumanida 3597,9 ming so'mni tashkil etdi.


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming. so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 3633,9	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1704,1		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1614,9	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1332,2
<b>Jizzax viloyati.</b>			<b>Zomin</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 11710,6	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 4352,7		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2069,1	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1156,3
<b>Jizzax shahar</b>			<b>Zarbdor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2765,3	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1914,0		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 6444,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 3597,9
<b>Arnasoy</b>			<b>Zafarobod</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 504,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 504,8		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2487,3	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1299,4
<b>Baxmal</b>			<b>Mirzacho'l</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 859,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 605,0		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 5268,8	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1663,8
<b>G'allaorol</b>			<b>Paxtakor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1531,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1065,0		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2146,5	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1099,2
<b>Sharof Rashidov</b>			<b>Forish</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 10752,2	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 3329,4		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2588,7	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 2583,4
<b>Do'stlik</b>			<b>Yangiobod</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3180,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 62,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin (100,0 %), Zafarobod (100,0 %) hamda Mirzacho'l (96,6 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Paxtakor (41,7 %), Do'stlik (49,0 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (47,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2020- yil 1- dekabr holatiga

Bugungi kunda viloyatda 3585 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 107 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,9 %) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 707 tasi ( 19,7 %), G'allaorol tumaniga 350 tasi ( 9,8 %), Zomin tumaniga 288 tasi ( 8,0 %), Forish tumaniga 156 tasi (4,3 %), Zarbdor tumaniga 157 tasi ( 4,4 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-noyabr oyida viloyatda 740 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 165 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,3 %) Jizzax shahrida, 96 tasi (13,0 %) Sharof Rashidov tumanida, 98 tasi (13,2 %) G'allaorol tumanida hamda 51 tasi ( 6,9 %) Do'stlik tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (72) 221-51-13